

**BOZORLAR VA SAVDO MAJMULARIDA MILLIY GVARDIYA HARBIY  
XIZMATCHILARINI XIZMAT O'TASHGA TAYYORLASH VA  
TASHKILLASHTIRISH TARTIBI**

---

*O'R JXU Magistratura tinglovchisi  
Mayor Fayzullayev Javohir Narzullo o'g'li*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada istirohat bog'lari va xiyobonlarda Milliy gvardiya harbiy xizmatchilarini xizmat o'tashga tayyorlash hamda tashkillashtirish tartibi haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** jamoat joylari, istirohat bog'lari, xiyobonlar, jamoat tartibi va xavfsizligi, xizmat o'tash tartibi.

**Аннотация:** В данной статье говорится о порядке подготовки и организации военнослужащих Росгвардии для службы в парках и бульварах.

**Ключевые слова:** общественные места, парки, бульвары, общественный порядок и безопасность, дежурный порядок.

**Annotation:** This article talks about the order of preparation and organization of National Guard servicemen for service in parks and boulevards.

**Keywords:** public places, parks, boulevards, public order and safety, order of duty.

Hozirgi murakkab davrda tinch osoyishta hayotimizni asrash va mustahkamlash, xalqimizning kafolatlangan xavfsizligini ta'minlash masalasi yanada dolzarblik kasb etmoqda. Barchamizga ma'lumki, jamiyatimizdagi sohalarda joriy etilgan islohotlar doirasida qonuniylik va jamoat xavfsizligini ta'minlashga alohida e'tibor qartilmoqda. Bu borada jamoat xavfsizligini ta'minlash yo'nalishidagi ishlarni "Xalq manfaatlariga xizmat qilish" tamoyili asosida tashkil etishning yangi mexanizmlari va tartibi joriy etildi.

Jamiyatda huquq-tartibotni ta'minlash tizimiga "Xavfsiz shahar", "Obod va xavfsiz mahalla", "Xavfsiz xonodon", "Xavfsiz turizm" kabi yangi modellar joriy etilishi natijasida aholining davlat organlari va qonun ustuvorligiga ishonchi ortdi. Shuningdek, "Huquq-tartibotni ta'minlash" indeksi bo'yicha xalqaro reytinglarda O'zbekistonning ko'rsatkichlari yaxshilandi. Aytish joizki, fuqarolarning jamoat tartibini saqlashdagi ishtiroki avvalombor ushbu ishtirokning chora-tadbirlarini belgilash, ishtirok etish usullari va hokimiyat hamda aholi o'rtasidagi o'zaro hamkorlik shakllarini belgilash muhim hisoblanadi. Jamoat tartibini saqlashda fuqarolar ishtirokining amaldagi qonunchilik doirasida huquqiy tartibga solinganligini tahlil qiladigan bo'lsak, bu borada ko'rish mumkinki, mazkur faoliyat turi qonun darajasida tartibga solinmagan.

Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev “Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi” nomli ma’ruzasida ta’kidlanganidek, “Ayni vaqtda qonunlarning to‘liqligi, hayotiyligi va to‘g‘ridan-to‘gri amalga oshirish mexanizmlariga ega ekani haqida so‘z yuritganda, bu borada hali ko‘p ish qilishimiz kerakligini ta’kidlash zarur”.

Davlat rahbarining ushbu keltirilgan fikrlari tahlil qilinayotgan masalaga ham bevosita ta’lluqli hisoblanadi. Jamoat tartibini saqlashga, fuqarolar hayoti va sog‘ligini turli xavflardan himoya qilishga, jismoniy va yuridik shaxslar mulkining ishonchli qo‘riqlanishini tashkil etishga, huquqbazarliklar proflaktikasiga qaratilgan jamoat xavfsizligini ta’minlash tizimida O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi faoliyat yurituvchi subyekt sifatida belgilandi.

O‘zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasи asosida Milliy gvardianing jamoat xavfsizligini ta’minlash yo‘nalishidagi asosiy vazifalari va jamoat tartibini saqlash bo‘yicha javobgarlik hududlari belgilandi. Bugungi kunda Milliy gvardiya tomonidan mustaqil ravishda Toshkent, Nukus shaharlari va viloyatlar markazlaridagi ommaviy tadbirlarda, istirohat bog‘lari, xiyobonlar va bozorlarda jamoat tartibini saqlashga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar amalga oshirib kelimoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tashabbusi bilan huquqni muhofaza qilish organlarining faoliyatini takomillashtirish va samaradorligini tubdan oshirish bo‘yicha keng ko‘lamli chora-tadbirlar amalga oshirildi, xususan, ichki ishlar organlarining tuzilmalari maqbullashtirildi hamda O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi faoliyati tubdan isloh qilindi. Qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi to‘g‘risida”gi Qonun bilan Milliy gvardianing asosiy vazifalari belgilandi. Xususan, jamoat tartibini saqlash, shu jumladan ommaviy tadbirlar, mitinglar, yig‘ilishlar, namoyishlar o‘tkazilayotganda hamda fuqarolar gavjum bo‘ladigan joylarda jamoat tartibini saqlash vazifalari shular jumlasidandir. Bozorlar va savdo majmularida, umumiylar qilib aytganda jamoat joylarida Milliy gvardiya harbiy xizmatchilarini xizmat o‘tashga tayyorlash va tashkillashtirish tartibi bir nechta normativ-huquqiy hujjatlarda belgilab qo‘yilgan. Xususan, PQ-5089- son qarorining “O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi xodimlarining xizmatni o‘tash tartibi to‘g‘risida nizomi” 1-bobiga ko‘ra, xodimlarning xizmati davlat xizmati turi bo‘lib, jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini, konstitutsiyaviy tuzumni himoya qilish, qonun ustuvorligini, jamiyat va davlat xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha vazifalarni amalga oshirishdan iborat. Shuningdek, xizmatni o‘tash quyidagi tartiblarni o‘z ichiga oladi:

xizmatga qabul qilish;

maxsus unvonlar berish va ulardan mahrum etish;

lavozimga tayinlash, lavozimdan ozod etish va lavozimdan lavozimga o‘tkazish;

xodimlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish;

xodimning boshqa davlat organlari va tashkilotlariga saylanganida (tayinlanganida, safarbar etilganida) xizmat o'tashi;

attestatsiya o'tkazish;

ta'tillar berish;

huquqiy va ijtimoiy himoya qilish;

xizmat o'tash rejimini ta'minlash;

xizmat muddatlarini uzaytirish, xizmatdan bo'shatish va xizmatga tiklash.

Bundan tashqari, yuqoridagi qarorming 5-bobida xodimlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish masalalari ham mustahkamlab qo'yilgan.

Jumladan:

Milliy gvardiya uchun xodimlarni tayyorlash Milliy gvardiya ta'lim muassasalari, oliy harbiy va ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari hamda O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasida, shuningdek, xalqaro shartnomalar asosida xorijiy davlatlar ta'lim muassasalarida amalga oshiriladi.

Xorijiy davlatlar ta'lim muassasalarida o'qish uchun tanlov o'tkazish tartibi va shartlari Milliy gvardiya qo'mondoni tomonidan belgilanadi. Xizmatga qabul qilingan fuqarolar (kursantlar va tinglovchilar bundan mustasno) majburiy tartibda maxsus kasbiy (boshlang'ich) tayyorgarlikdan o'tadi.

Xodim boshqa turdag'i kasbiy faoliyat bilan bog'liq lavozimga tayinlanganda yoki uni yangi yo'nalishlar bo'yicha tayyorlash zarur bo'lganida qayta tayyorgarlikdan o'tishi shart.

Xodimlar Milliy gvardiya ta'lim muassasalarida Milliy gvardiya qo'mondoni tomonidan tasdiqlanadigan dasturlar asosida malaka oshiradi. Milliy gvardiya ta'lim muassasalarida nazarda tutilmagan mutaxassisliklar bo'yicha xodimlarning malakasini oshirish O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasida, O'zbekiston Respublikasining boshqa ta'lim muassasalarida yoki xorijiy davlatlar ta'lim muassasalarida tashkil etiladi.

Xodimlarning xizmat, jangovar va jismoniy tayyorgarligini, ma'naviy-axloqiy darajasini oshirish uchun Milliy gvardiyada tizimli ravishda xizmat, jangovar va jismoniy tayyorgarlik mashhg'ulotlari tashkil etiladi. Xodim maxsus tayyorgarlikdan, shuningdek, jismoniy kuch ishlatish, maxsus vositalar va o'qotar qurol qo'llash bilan bog'liq sharoitlarda harakatlanishga kasbiy yaroqliligi bo'yicha har yilgi tekshiruvdan o'tishi shart. Maxsus tayyorgarlikdan o'tgan xodimiga tegishli sertifikat beriladi.

Xodimlarni maxsus kasbiy (boshlang'ich) tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish, shuningdek, xizmat o'tash vaqtida xizmat, jangovar va jismoniy tayyorgarlikdan o'tishini tashkil etish tartibi va shartlari Milliy gvardiya qo'mondoni tomonidan belgilanadi.

Shunday qilib, bozorlar va savdo majmularida, umumiy qilib aytganda jamoat joylarida Milliy gvardiya harbiy xizmatchilarini xizmat o'tashga tayyorlash va tashkillashtirish tartibini amalga oshirish uchun, avvalo, qonunda belgilangan tartibtamoyilgarga amal qilish, ularning xizmat o'tash shart-sharoitlarini yaxshilash bo'yicha tegishli dasturlarning bajarilishini kompleks tahlil qilishda ishtirok etish, ushbu dasturlarning amalga oshirilishi yuzasidan samarali keng qamrovli ishlar olib borilishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki har bir xizmat vazifasini o'tayotgan Milliy gvardiya harbiy xizmatchilari qulay va shinam shart-sharoitlarda xizmat o'tadyigan bo'lsa, albatta mas'uliyat hissi yana ham ortgan bo'ladi, bu esa xizmat samaradorligini va sifat oshishida katta rol o'ynaydi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 29-noyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlar va uni amalga oshirish chora-tadbirlari haqida"gi PF-27-son farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 18-noyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi to'g'risida"gi O'RQ-647- son qonuni.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 22.04.2021 yildagi "O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasida xodimlar tomonidan xizmatni o'tash tartibini takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-5089-son qarori.
4. O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoevning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bagishlangan tantanali marosimdag'i ma'ruzasi.